

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Abduxalimov</b>	
Andijon viloyatida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatidan.....	213
<b>F.K.Yusupjanova</b>	
Turli tizimli tillarda "head/bosh/ голова" somatik komponenti bilan makallarning qiyosiy-tipologik o'rGANISH .....	217
<b>F.M.Mamadjanov</b>	
Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari .....	227
<b>M.Komilova</b>	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish .....	233
<b>A.A.Abduxalimov</b>	
Namangan viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularning moddiy-texnik holati.....	239
<b>I.R.Asqarov, M.M.Akbarova, Z.A.Smanova</b>	
Portulaca oleracea o'simligining kimyoiy xossalari .....	242
<b>S.M.Isroilova</b>	
Muloqot qilish rus tilini oqitish jarayonoda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.....	249
<b>Sh.V.Djalolov</b>	
Umumta'lim maktab tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va organizmning funksional holatining manoringi .....	253
<b>A.A.Qambarov</b>	
Marg'ilonlik katta ashula darg'alari .....	260
<b>D.T.Samatov</b>	
Falsafa fanini o'qitishda multimedaviy storitellingdan foydalanishning samaradorligi .....	265
<b>A.U.Azimov</b>	
Yuksak axloqiy yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining o'rni .....	269
<b>A.A.Ahrorqulov</b>	
Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash .....	275
<b>D.A.Mamajonova</b>	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari .....	279
<b>M.M.Mamadaliyeva</b>	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavflar tahlili .....	282
<b>U.O'.Musoyev</b>	
Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning xududiy tavsifi .....	286
<b>D.Y.Tashnazarov</b>	
Yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatishda umumiylar va maxsus tayyorgarligi .....	291
<b>M.M.Alimova</b>	
Ikkinchi jahon urushi arafasida mehnat intizomi (Buxoro viloyati) .....	299
<b>R.Sh.Bozorova</b>	
Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni .....	303
<b>E.X.Zoirov</b>	
Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri" da pir-murshid tushunchasi .....	307
<b>A.S.Inomov</b>	
Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi .....	311
<b>I.S.Aslonov</b>	
O'zbekistonning mustamlakachilik davrida savdo va transport yo'llari tarixi .....	316
<b>B.M.Jo'raquziev</b>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat masalalari .....	320
<b>O.Radjabov</b>	
Qirg'izistonda temir yo'llar tarixi .....	324
<b>Y.Shukurillaev</b>	
Sho'ro Rossiysi tomonidan Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonida to'plagan razvedka ma'lumotlari tahlili .....	330
<b>M.M.Mamatkodirov</b>	
Maktablarda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini yaratish uchun asosiy tizimli komponentlar .....	333
<b>M.Sh.Qoraboeva</b>	
Islom falsafasida intellektual faoliyat mezonlariga doir qarashlar tahlili .....	338

## OLIY TA'LIM SOHASIDA KORRUPSIYAVIY XAVFLAR TAHLILI

### АНАЛИЗ КОРРУПЦИОННОГО РИСКА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

### ANALYSIS OF CORRUPTION RISK IN HIGHER EDUCATION

**Mamadaliyeva Muazzam Murodjon qizi<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Mamadaliyeva Muazzam Murodjon qizi**

— Farg'ona davlat universiteti Yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

#### *Annotatsiya*

*Ushbu illatga qarshi nafaqat davlat organlari balki Oliy ta'lim sohasida ham faol harakti va ularning bu illat yuzasidan asos deb biladigan fikr va mulohazalari batafsil yoritilib ko'rsatilib o'tilgan.*

#### *Аннотация*

*Подробно показаны активные действия не только государственных органов, но и в сфере высшего образования против этого заболевания и их мнения и соображения по поводу этого заболевания.*

#### *Abstract*

*The active action of not only state bodies but also in the field of higher education against this disease, and their opinions and considerations regarding this disease, which they consider to be the basis, are shown in detail.*

**Kalit so'zlar:** "Jamoatchilik nazorati", "Ijtimoiy fikr", "Murojaatnoma", "Jinoi javobgarlik".

**Ключевые слова:** «Общественный контроль», «Общественное мнение», «Обжалование», «Уголовная ответственность».

**Key words:** "Public control", "Social opinion", "Appeal", "Criminal liability".

### KIRISH

Bugungi kunda jahon amaliyotida korrupsiyaviy huquqbazarliklarga qarshi kurashishda profilaktik uslublardan foydalanish keng tarqagan. Korrupsiyaviy jinoyatlarning ko'pchiligi aniqlanmay qolishini inobatga olsak, bu yo'nalishga ko'proq e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fikrimizcha, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning tahlil etish jarayoni milliy darajada keng o'r ganilmagan (shu jumladan oliy ta'lif tizimida) soha bo'lib, lekin xalqaro miqyosda ushbu yo'nalish keng tarqagan.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Jumladan, Claremont Universiteti tomonidan "International Cooperation against Corruption, Finance & Development"[1] qo'llanmasida, "U4" Korrupsiyaga qarshi kurashish markazi katta maslahatchisi Stenberg Johnson tomonidan "The basics of corruption risk management A framework for decision making and integration into the project cycles"[2]<sup>2</sup> qo'llanmasida, "U4" Korrupsiyaga qarshi kurashish markazi maslahatchisi Marijana Trivunovic va boshqalar tomonidan "Developing an NGO corruption risk management system: Considerations for donors"[3] qo'llanmasi va OECD yoki Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan "Integrity of Education Systems A Methodology for Sector Assessment"[2] qo'llanmasida batafsil yoritib o'tilgan.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda ularni yuza keltiruvchi omillar bilan to'qnash kelamiz. Professor Robert Klitgaard korrupsiyaviy xavf-xatarlarni K=M+E-H-O (K-korrupsiya,

M-monopoliya, E-ehtiyotkorlik, H-hisobdorlik, O-oshkoraliy) formulasi orqali yoritadi. Formulada davlat va jamiyat hayotida monopoliya egalarining ehtiyotkorlik bilan munosabatga kirishishlari uchun ularni hisobdorligi va oshkoraliyi ta'minlanishi kerak[3,18].

Fikrimizcha, **korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil etish** – davlat organining amalga oshirayotgan funksiyalari (vakolatlari)ni tahlil etish va korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning sodir etilishiga sharoit yaratishi mumkin bo'lgan korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash hamda ularni minimallashtirishga qaratilgan samarali va natijali chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha faoliyat hisoblanadi.

Oliy ta'lif sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil etish jarayonida ma'lumotlarni jamlash dastlabki va muhim bosqich hisoblanadi. Bunda bir nechta farqli usullardan foydalanish mumkin:

Birinchidan, sohasidagi davlat xizmatchilarining tegishli faoliyatini tartibga soladigan hamda funksiya (vakolat)larini belgilab beradigan normativ-huquqiy va lokal hujjatlar (davlat organi to'g'risidagi nizom, ma'muriy reglamentlar, yuqori turuvchi davlat organlarining bayonnomasi, qarorlari va topshiriqlari, lavozim yo'rinnomalari, buyruqlar va boshqalar)ni olish.

Ikkinchidan, ta'lif muassasalaridagi ichki tekshiruvlar, jumladan, xizmat tekshirushi materiallari, davlat xizmatchisi (xodimi)ning korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etishga moyilligiga oid faktlar to'g'risidagi xabarlarni to'plash, bu borada ko'maklashuvchi shaxslar xizmatidan foydalanish.

Uchinchidan, ta'lif xizmatidan foydalanuvchilar talabalar, o'qituvchilar, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa manfaatdor shaxslar ishtirokida ijtimoiy so'rovlar o'tkazish.

To'rtinchidan, sohadagi huquqbazarliklar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar olish.

Beshinchidan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, xalqaro va xorijiy ekspertlar ma'lumotlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining oliy ta'lif sohasida korrupsiyaga oid huquqbazarliklar haqidagi yoki davlat xizmatchisi tomonidan odob-ahloq qoidalariga rioya qilmaganligi holatlari to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat bo'lgan xabarlarni olish.

Oltinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar, jumladan, prokuror nazorati hujjatlarini to'plash.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan usullar yordamida to'plangan ma'lumotlar umumlashtiriladi, tahlil qilinadi va shu asosda korrupsiyaviy xavf-xatar aniqlanadi. Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlaring kelib chiqish ehitimoli va uning salbiy ta'sir etish hajmiga qarab **past, o'rta, yuqori darajada** baholanadi

So'nggi bosqichda saralangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha taklif va mulohazalar ishlab chiqiladi hamda zarur choratadbirlar belgilanadi.

Xorijiy mutaxassis va ekspertlar korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilishda turli xil yondashuvlarni keltirib o'tgan. Xususan, "U4" Korrupsiyaga qarshi kurashish markazi katta maslahatchisi Stenberg Johnson fikriga ko'ra, "Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil etish to'rtta bosqichdan iborat bo'lib, bu yondashuvda tizimli xavflarni o'rganish, xavf darajasini aniqlash va samaradorlik ko'rsatkichlariga asoslangan holda xavf-xatarlarni kamaytirish choralarini tanlashni tavsiya qiladi.

Taniqli ekspert Stenberg Johnson korrupsiyaviy xavflarni tahlil etish jarayonini quyidagi to'rtta bosqichga bo'ladi:

- 1) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularga bardoshlilik darajasini belgilash;
- 2) xavf-xatarlar darajasining baholash (ehitimollik va ta'sirlar);

faol xavf-xatarlar darajasini bardoshlilik bilan taqqoslash, agar talab etilsa, xavflarni bartaraf etish bo'yicha qaror qabul qilish;

agar xavf-xatarlarni bartaraf etish talab etilsa, eng kam xarajat va samarali usulni tanlash"[4,7].

Stenberg Johnson uslubiga asosan, oliy ta'lif sohasida mavjud bo'lgan xavf-xatarlardan birini amaliy misol tarzida ko'rib chiqsak, uning yondashuvining mohiyatini anglash mumkin bo'ladi.

**Birinchi bosqichda** mavjud xavf-xatarlar aniqlanadi, ya'ni bunda sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbazarlikning kelib chiqish sabablari, unga yo'l ochib bergen omillar o'rganiladi. Masalan, ma'lum yo'nalishida o'qiyotgan talabani turdosh bo'lmagan boshqa yo'nalishga o'tkazish tartibi normativ-huquqiy hujjatlarda[5] aniq ko'rsatilmaganlik holatini sohadagi korrupsiyaviy xavf-xatarlardan biri sifatida aniqlab oldik.

**Ikkinci bosqichda** aniqlangan xavf-xatarlar baholanadi, ya'ni uni xavf darjasini, korrupsiyaviy huquqbazarliklarni sodir etish imkoniyati, mavjud tizimga salbiy ta'sirlari, salbiy oqibatlari kabi faktor bo'yicha o'rganiladi. Yuqoridagi misolni davom ettirsak, talabani bir yo'nalishdan turdosh bo'lmagan boshqa yo'nalishga o'tkazish tartibini normativ-huquqiy hujjatlarda aniq belgilanmaganlik holatini yuqori korrupsiyaviy xavf-xatar sifatida baholashimiz mumkin. Zero, talabga javob bermaydigan, bilimsiz kadrlarni shakllanishi davlatning har qanday faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Asosiysi, o'qishga kirish imkoniyati katta bo'lgan yo'nalishdan raqobat kuchli bo'lgan yo'nalishga pora evaziga o'tish korrupsiyaviy mexanizmga aylangani, bu borada talabgorlarning

ko'pligi va ushbu jarayonni inson omiliga bog'liq holda hal etilishi xavfning yuqori darajasini ko'rsatib beradi.

**Uchinchi bosqichda** aniqlangan va baholangan xavf-xatarlar darajasini inson omiliga bardoshliligi taqqoslanadi. Bunda mavjud xavf-xatarlar darajasiga mansabдорлар yoki boshqa vakolatlari shaxslar bardosh bera olishlik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Agar mansabдор shaxsning korrupsiayiv xavf-xatar darajasiga bardosh bera olmasligi aniq bo'lsa, uni bartaraf etish bo'yicha qaror qabul qilinadi. Amaliy misolni davom ettiradigan bo'lsak, o'zi qiziqmagan mutaxassislik bo'yicha o'qiyotgan talaba, albatta, o'zi xohlagan mutaxassisligi bo'yicha o'qishni xohlaydi va buning uchun turli yo'llarni qidiradi. Talabaning o'zi xohlagan yo'nalishga o'qishni ko'chirish imkoniyati uning uchun yagona yo'l sifatida maydonga chiqadi, o'qishni ko'chirishga talabgorlar ko'p bo'lishi, bu faoliyatda tegishli mas'ullarning vakolatlari aniq belgilanmagani, mansabдор shaxslarning korrupsiayiv bosimga bardosh bera olmaslik ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatadi.

**To'rtinchi bosqichda** aniqlangan, baholangan va inson omiliga bardoshliligi taqqoslangan korrupsiayiv xavf-xatarlarni bartaraf etish uchun samarali va kamxarajat chora tanlanadi. Talabalarning turdosh bo'lmagan yo'nalishlarga ko'chirish korrupsiayiv holatlarni keltirib chiqarishi, bu bo'yicha har yili OTMdа komissiyalar tuzilishi, buning uchun budgetdan mablag'lar ajratilishi yoki mas'ullarga qo'shimcha vazifalar yuklatilishi kabi holatlarni inobatga olsak, turdosh bo'lmagan mutaxassislik bo'yicha talabalarni ko'chirish tartibini butunlay bekor qilish maqsadga muvofiq.

"U4" Korrupsiaga qarshi kurashish markazi maslahatchisi Marijana Trivunovic tomonidan korrupsiayiv xavf-xatarlarni tahlil etishni to'rt bosqichga bo'lingan bo'lsada,[6,6] Stenberg Johnson usulidan farqli ravishda u xavf-xatarlarni inson omiliga bardoshliligiga alohida e'tibor bermagan, lekin xavf-xatarlarni bartaraf etish uchun tanlangan chorani amalga oshirishni alohida bosqich sifatida ko'rsatgan.

"Xususan:

- a) dastur yoki loyiha asosida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun korrupsiayiv xavf-xatarlar va tahdidlarni aniqlash;
- b) korrupsiayiv xavf-xatarlarni ehtimollik darjasini va ta'sir etish imkoniyatlariga asosan jiddiylik darajasini belgilash;
- v) korrupsiayiv xavf-xatrlarni kamaytirish uchun aniq va ustuvor chora-tadbirlarni belgilash;
- d) korrupsiayiv xavf-xatarlarni yuzaga kelish imkoniyatlari va zararli ta'sirlarni kamaytirish maqsadida belgilangan choratadbirlarni amalga oshirish".

Ta'lim tizimida korrupsiayiv xavf-xatarlarni tahlil etishning yana bir yondashuvi Integrity of Education System (INTES) yoki Ta'lim tizimining yaxlitligi deb nomlanadi. Bu tizim Open Society Foundation (Ochiq jamiyat fondi) tomonidan AQShdagи o'rta maxsus va OTMdа qo'llangan. Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan Ukraina ta'lim tizimni tahlil etishda ham foydalaniqgan.

INTES yuqoridagi yondashuvlardan farqli ravishda tahlilni uch bosqichda amalga oshiradi:

1. Sohada mavjud xavfni aniqlash, ya'ni korrupsiayiv huquqbazarlik "nima" degan savolga javob topish, bunda yaxlit huquqbazarlik nima ekanligi aniqlanadi;

2. Sababiy tahlilni amalga oshirish, ya'ni korrupsiayiv huquqbazarlik "qanday" sodir etilgan degan savolga javob topish, bunda huquqbazarlikka yo'l ochgan imkoniyatlar aniqlanadi hamda sababiy tahlilning ikkinchi qismini amalga oshirish, ya'ni bunda korrupsiayiv huquqbazarlik "nima uchun" sodir etilgan degan savolga javob topish, bunda huquqbazarlik uchun qanday manfaat yaratishini aniqlash;

3. Sohada mavjud xavfni bartaraf etish bo'yicha qaror qabul qilish, bunda sodir etiladigan harakatlar shakllantiriladi"[7,28].

INTES uslubi sohada mavjud xavf-xatarlarni aniqlash, ularni asl sabab va omillarini topishda juda qulay, biroq mazkur yondashuvda aniqlangan xavf-xatarlarni baholashga, bartaraf etilishi lozim bo'lgan xavf-xatarlarni belgilab olishga e'tibor qaratilmagan. Fikrimizcha, INTES uslubini uchinchi bosqichini xavf-xatarlarni inson omiliga taqqoslash orqali baholash jarayoni bilan to'ldirsak, mukammal tizimga ega bo'lamiz.

M.Trivunovich esa korrupsiayiv xavf-xatarlarni tahlil etishni asosan, ikkita yo'nalishga, ya'ni xavf-xatarlarning oldini olish va jazolash yo'nalishiga bo'ladi.[8,6] Fikrimizcha, mazkur ikki

## ILMIY AXBOROT

yo'nalishni bir-biridan alohida ajratish yoki ularni alohida qo'llash maqsadga muvofiq emas. Zero, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish uning oqibatlari bilan kurashishdan ko'ra yaxshi, lekin tahlil va tizimli o'zgarishlarni amalga oshirish uchun bu mukammal tizim yaratildi yoki korrupsiyaviy huquqbazarliklar sodir etilmaydi degani emas. Shuning uchun sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbazarliklarga qonuniy chora ko'rish jazolash yo'nalishi orqali ta'minlanadi. Har bir davlatda bu ikki yo'nalishni mavjud bo'lishi korruptsianing maksimal oldini olish imkoniyatini beradi.

### XULOSA

Yuqorida keltirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil etish uslublarini nafaqat oliy ta'lim sohasida, balki boshqa sohalarda (sog'liqni saqlash, kapital qurilish, bank-moliya va boshqa) ham qo'llash mumkin.

Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil etishni quyidagi asoslarga ko'ra ham tasniflash mumkin.

Birinchidan, hududiylik tamoyili asosida, davlatning butun hududidagi yoki ayrim hududdagi OTMdada tadqiqot o'tkazish (Respublika yoki Toshkent shahrida joylashgan OTMdada).

Ikkinchidan, sohalar asosida, mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha OTMni tadqiq qilish (Respublikadagi tibbiyot OTM).

Uchinchidan, xavf-xatarlarni sodir etilayotgan huquqbazarlik turlari asosida tadqiq qilish (mansabdar shaxslar poraxo'rlik jinoyatlari).

To'rtinchidan, OTMning tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra xavf-xatarlarni tahlil qilish (davlat, xususiy yoki xorijiy OTMdada).

Beshinchidan, sohaning ayrim bosqichlarida xavf-xatarlarni tahlil qilish (O'qishga kirish, talabalarni baholash, boshqaruv bosqichlarida).

Oltinchidan, sohada mavjud lavozimlar bo'yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tahlil qilish (rektor, prorektor, hisobchi, yoki kafedra mudiri).

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza, 2018-yil 7-dekabr.
2. Sh.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan murojaatnomasi, 2020 24 yanvar.
3. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Respublika Idoralararo komissiyaning yig'ilish bayoni, "Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish va qonuniylikni ta'minlashga doir masalalar" – 2019-yil 18-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar ma'lumotlari milliy bazasi, 2019 y., 06/19/5847/3887-son.
5. Osipian A. "Glossary of Higher Education Corruption with Explanations", 2009, p – 26. <http://people.vanderbilt.edu/~ararat.osipian. http://www.osvita.org>
6. Akhrorkulov, A. (2020). Non-Profit Organizations: Legislation Reform And Law Enforcement Practice. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2(10), 129-134.
7. Gulyamov, S., & Ahrorqulov, A. (2022). NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY ASOSLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 1029-1041.
8. Ahrorqulov, A. (2022). NOTIJORAT TASHKILOTLARI TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 893-902.
9. Akhrorqulov, A. (2020). Issues of formation and registration of non-profit organizations. *Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19)*, 1(02), 23-26.
10. Mamajonova, D. (2022). KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR-XALQ MANFAATINING ASOSIY MEZONI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 688-693.
11. Dadaboeva, D. A. (2021). Civil-legal regulation of educational services. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 448-453.
12. Baratov, M., & Borotov, A. (2021). METHODS AND RESOURCES OF REALIZING THE RIGHT OF PRIVATE PROPERTY OR THE RIGHT TO USE THE LAND AS AN ELEMENT OF PRIVATE PROPERTY. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.4 Legal sciences).
13. Borotov, A. X. (2021). XUSUSIY MULK HUQUQINI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI: DE YURE/DE FACTO. *JURNAL PRAVOVIX ISSLEDOVANIY*, 6(5).
14. KO 'CHMAS MULK SOTILGANDA YER UCHASTKASIGA BO 'LGAN HUQUQNING YURIDIK TAQDIRINI BELGILASH A Rahimjonov "Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ... 2 2022
15. INCREASING CIVIL LIABILITY FOR VIOLATION OF RIGHTS TO REAL ESTATE A Rakhimjonov "The american journal of social science and education innovations" 3 (04 ... 1 2021
16. Topildiyev, B. R. (2022). MOL-MULKNI ISHONCHLI BOSHQARISH TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 998-1008.
17. Topildiyev, B. R. (2017). Osnovniye usloviya dogovora doveritelnogo upravleniya imushestvom. *Yurist*, (9), 15-19.